

AMERIKA ADABIYOTIDA ILK ROMANTIZM PROZASINING TILI VA BADIY XUSUSIYATLARI

S. Rasulova ¹

Annotatsiya:

Amerika adabiyotida XIX asrda romantizm oqimi muhim o'rin egalladi. O'sha kezlarda jamiyatda shirin sevgi xayoli, baxtli oila qurish ishtiyoqi orta bordi. Amerika romantiklarining romantik tuyg'ular tarannum etilgan poem va she'rlari, xayoliy va sarguzasht voqealarga boy novellalari jahon adabiyotining sara asarlari qatoridan zalvorli o'rin egalladi. Shu bois, Amerika adabiyotida ilk romantizm tarixida muhim o'rin egallovchi yirik yozuvchilar hayoti, ijodi va asarlari xususida ma'lumot ushbu maqolamizda bayon qilinadi.

Kalit so'zlar: Roman, inqilob, hikoya, obraz, adabiyot, orzu, jamiyat

doi: <https://doi.org/10.2024/b0cz7162>

Ma'lumki, XIX asrning birinchi yarmida Amerika romantiklari tomonidan ko'tarilgan masalalar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Ular qoldirgan adabiy meros yuzasidan hozirda ham bahs va munozaralar to'xtagan emas va bu borada ko'plab muammolar o'z yechimini kutmoqda. Qayd etish lozimki, hozirgi kunda ilm-fanda turli xalqlar hamda turli madaniyatlararo o'zaro hamkorlik masalalariga qiziqish tobora ortib bormoqda. Mazkur qiziqishlar markazidan, shubhasiz, g'arbu sharq madaniyati asosiy o'rinni egallaydi².

Germaniyada vujudga kelib, tezda Angliya, Frantsiya va o'zga o'lkalarda tarqalgan Romantizm harakati taxminan 1820 yili Amerikaga ham yetib bordi. Shu paytga kelib, Uilyam Vordsvort va Teylor Kolrij "Lirik Balladalar"ni nashr etib, ingliz she'riyatida inqilobiy burilish yasaganidan keyin yigirma yil vaqt o'tgan edi. Yevropada bo'lgani kabi Amerikada ham yangicha sof oqim romantizm yunalishi san'at va ziyolilar ahlini to'lqinlantiradi. Biroq, bir muhim farqni ham nazarda tutish lozimki, Amerikada romantizm davlat hududlarining kengayishi va Amerikaning o'ziga xos ovozi kashf etish davri bilan uyg'unlashdi. Milliy o'zlikni anglash, idealizm oqimining paydo bo'lishi va Romantizmning avj olishi birgalikda "Amerika renessansi" ning, ya'ni yangi zamon ruhiyatida shakllana borayotgan shoh asarlarini yuzaga keltirdi. Ayni paytda Romantizm aksariyat Amerika shoirlari va ijodkor essechilari uchun ijobiy va mutanosib oqim edi. Amerikaning bepoyon tog'lari, dashtu cho'llari va tropik o'rmonlari badiiy ijodda o'ziga xos balandparvoqlik ifodalariga asos bo'la

¹ Rasulova Soxiba Ulug'bekovna, Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil izlanuvchisi

² Нуриева Н. М. Ориентализм в творчестве Вашингтона Ирвинга. Al-Farabi Kazakh National University. Eurasian Journal of Philology: Science and Education. № 3 (167). 2017. – Б. 1-7.

olgan. Romantik qarash N.Xotorn ta'biri bilan aytganda, "romans" – hikoyaning balandparvoz, ehtirosli va ramziy shaklidir.

Romanslar sevgi qissasi emas, balki murakkab ma'nolarni ifodalash uchun maxsus vositalardan foydalanilgan jiddiy hikoyalardir. Amerika romanslarining tipik bosh qahramoni o'z o'ylariga g'arq, shakllangan shaxsdir. N.Xotorinning "Skarlet maktubi" dagi Artur Dimmisdeyl yoki Gester Prinn, H.Melvilning "Mobi Dik" idagi Exab va Po qissalaridagi ko'plab yakkalangan va savdoyi xarakterlardir¹.

Romantizm g'oyalari san'at borasida ilhom, borliqni ruhiy va estetik baholash, organik rivoj metaforalari atrofida markazlashadi. Romantiklar fikricha, umumbashar haqiqatni ilmgga nisbatan san'at a'lo ifodalashi mumkin edi. Romantiklar ayrim shaxs va jamiyat uchun san'at ta'sirining ahamiyatini alohida ta'kidlashgan. Romantizm davrining eng nufuzli adibi Ralf Valdo Emerson "Shoir" (1844) nomli essesinde shunday degan edi: "Haqiqat ila yashovchi va o'zligini ifodalashga ehtiyoj sezuvchi barcha insonlarda muhabbatda, san'atda, baxillikda, siyosatda, mehnatda, o'yinlarda biz o'zimizning hassos sirlarimizni ifodalashni o'rganamiz. Inson borlig'ining yarmi – o'zi, ikkinchi yarmi esa – uning ifodasidir"². Romantizm nazariyasiga binoan o'zligini rivojlantirish asosiy mavzuga, o'zligini anglamoq esa asosiy uslubga aylandi³.

Badiiy adabiyotning bugun ham tan olingan ilk yirik namoyondalari Charlz Brokden Braun, Vashington Irving va Jeyms Fenimor Kuper Amerika mavzulari, tarixiy jarayonlari, o'zgarish muammolari va o'tmishni qo'msash hissiyotlarini ko'tardilar va tasvirlab berdilar. Ular o'z ijodlarida XIX asrning boshlaridagi Amerika jamiyati hayotining xarakterli xususiyatlarini ifodalab berdilar.

Romantizm (fr. romantisme) XVIII asr va XIX asrning birinchi yarimidagi Yevropa, shuningdek, Amerika adabiyoti va san'atida paydo bo'lgan klassitsizm qonun-qoidalariga qarshi chiqib, milliy va individual o'ziga xoslikka, ideal kahramonlar va tuyg'ularni tasvirlashga intilish bilan ajralib turuvchi yo'nalish, oqimdir⁴.

Bu davrda romantizm ijodiy metodi tarixiy-zaruriy ehtiyoj natijasida yuzaga keldi. Buning muhim sabablaridan biri shundaki, yozuvchilar o'zlari yashab turgan hayotdan, turmushdan norozi bo'la boshlaydilar. Natijada, ular asarlarida o'zlari orzu qilgan narsalarni ideallashtirib tasvirlashga tirishadilar⁵. Romantizm turli mamlakatlarda turlicha namoyon bo'ldi. Frantsiyada ehtiros va shijoat, Germaniya, Avstriyada noliish ohanglari, yo'qolgan ideallarni qo'msash tuyg'ulari, diniy zohidlik yetakchiligi bilan ajralib turadi, Amerikada romantik fantastika, zohidlik kayfiyatidagi asarlar maydonga keldi. Romantizm ma'rifatchilik oqimidan keyin vujudga kelgan adabiy metod bo'lib, o'z atrofidagi voqelik va hayotdan qanoatlanmay, boshqa real voqelikdan yuqoriroq va ideal, pokiza voqelikni orzu qilish, inson va jamiyatni mukammalroq ko'rish istagini

¹Vanspenkeren K. Tarjimon: Prof. Hamidulla Karomatov. Amerika adabiyotining asoslari. – Toshkent.:1994.-B37. 120 6.

² Shu kitob

³ Shu kitob

⁴ Begmatov E., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mirzayev T. (raxbar), Tuxliyev M., Umarov E., Xudoyberganova D., Xojiyev A. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi - R harfi. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat milliy nashriyoti, 2006-2008. – B. 239. – B. 321.

⁵ Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi. 1983. – B. 87. – B. 378.

o'zida mujassam qiladi¹. Romantiklar badiiy shaklni yangiladilar, tarixiy roman, fantastik qissa, liro-epik doston janrlarini yaratdilar, sahnani isloh qildilar. Romantizm davrida, ayniqsa, she'riyat rivojlandi, she'riy shaklning imkoniyatlari kengaytirildi. Romantizm metod sifatida Germaniyada aka-uka Fridrix va Avgust Shlegalar va E.Gofman, Frantsiyada V.Gyugo va Jermena de Stal, Angliyada Bayron va P.B.Shelli, Italiyada J.Lopardiya A.Mandozni, Norvegyada G.Ibsenning ilk ijodi, Polshada A.Miskevich va Yu.Slovaskiy, AQShda F.Kuper, V.Irving va G.U.Longfello, Rossiyada A.S.Pushkin, M.Yu.Lermontov, N.V.Gogol ijodida o'z xususiyatlarini namoyon qildi².

Romantik yozuvchilar yaratgan obrazlar butunlay hayot haqiqatidan uzoq, undan ajralib qolmagan bo'lsa ham, biroq bu obrazlar bevosita hayotiy haqiqatning badiiy haqiqatga aylangan obrazi bo'lmay, balki ular orzu qilgan hayotning in'ikosidan iborat. Shuni ham aytib o'tish kerakki, romantizm ham tarixiy shart-sharoit taqozosiga ko'ra, o'z taraqqiyotining turli bosqichlarida turlicha xarakter kasb etdi va, o'z navbatida, yangi tug'ilib kelayotgan ijodiy metodga – realizmga turlicha munosabatda bo'ldi. Chunki romantizm o'z xarakteriga ko'ra uch xildir:

a) ilg'or ijtimoiy ideallarni emas, balki umri tugab borayotgan, jamiyatning olg'a xarakat qilishiga g'ov bo'lgan diniy motivlarni ideallashtiruvchi reaksion yoki passiv romantizm.

b) tarixning ilg'or (tendentsiyasi) – oqimni ideallashtiruvchi, jamiyatning olg'a harakat qilishiga yordam beruvchi progressiv romantizm;

c) jamiyatni revolyutsion asosda yangilash maqsadini ilgari suruvchi, revolyutsion g'oyalarni targ'ib etuvchi inqilobiy romantizm bo'lib, u progressiv romantizmning eng yuqori ko'rinishidir³.

Romantizmning asosiy g'oyalari – ma'naviy va ijodiy hayot qadriyatlarini tan olish, erkinlik va mustaqillik huquqi. Adabiyotda qahramonlar isyonkor kuchli xarakterga ega va syujetlai ehtirolslarning shiddati bilan ajralib turardi.

Bu oqimning bosh xislati – V.G.Belinskiy ta'biri bilan aytganda, idealga moslab hayotni qayta yaratishdir, ya'ni orzu qilingan voqelikni tasvirlash, uni go'zal va mukammal hayot tarzida ko'rsatish; ana shu hayot qahramonlarining afsonaviy kuch-qudratga egaligini, mo'jizakorligini ideallashtirishdir⁴.

Insoniylikni ulug'lash, ezgulikni kuylash, muhabbat va sadoqatni yuksak darajada madh etish, unga ishontirish romantizmning eng xarakterli alomatidir. Unda hayotni judayam ko'tarinki ruhda, serjilo bo'yoqlarga boy tarzda, yorqin va nozik ifoda etish xislatga aylanadi va bu xislat kitobxon qalbini larzaga soladi⁵.

Romantik metodning asosiy xususiyatlaridan yana biri har qanday jamiyat (quldorlik, feodalizm, kapitalizm, ijtimoiyizm) ning insoparvarlikka qarshi g'oyasini doimo fosh etish va qoralashdir. Ijodda va hayotda erkinlik, shaxs

¹ Normatova Sh. Jahon adabiyoti. O'quv qo'llanma. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – Toshkent: 2008. – B. 36. – B. 50.

² Normatova Sh. Jahon adabiyoti. O'quv qo'llanma. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – Toshkent: 2008. – B. 36. – B. 50.

³ Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1983. – B. 282-283. – B 378.

⁴ Belinskiy V.G. Poeziyaning xil va turlarga bo'linishi. 1841. – B. 120. Manba: Oybek. Mukammal asarlar to'plami 19 tomlik. Toshkent: "Fan", 1981. 17 tom. – B. 308.

⁵ Boboyev T. Adabiyotshunoslikka asoslari. – T.: "Uzbekiston", 2001. – B. 523. – B. 560.

ozodligi va komilligi uchun kurashdir. Bu xususiyat hamma romantik ijodkorlar faoliyatida pafos darajasiga ko'tarilgan¹.

N.Shukurovaning "Adabiyotshunoslikka kirish" kitobida romantizmga quyidagicha ta'rif berilgan: "Romantizm – voqelikni aks ettirishning o'ziga xos ijodiy metodidir. Romantizmda hayot voqealarini o'z formasida tasvirlash printsiplari emas, balki yozuvchi idealiga mos keladigan xayoliy obrazlar, xayoliy voqealar yaratish printsiplari xukmron bo'ladi. Romantizm yozuvchining hayot haqidagi ideallarini ko'proq umumlashtiradi. Bu metod asosida yaratilgan asarlardagi qahramonlarning aksariyati g'ayri tabiiy, mo'jizaviy kuch-qudrat egasi qilib tasvirlanadi"².

Amerika adabiyotidagi romantizm 1775-1783 yillarda Qo'shma Shtatlarda yuz bergan inqilob tufayli maydonga keladi. Yevropa mamlakatlari adabiyotiga ta'sir ko'rsatgani kabi frantsuz burjua revolyutsiyasi (1789-1794) AQSh adabiyotida romantizm yo'nalishining kelib chiqishiga inqilobiy turtki bo'ladi³.

XIX asrning birinchi yarmida Amerika Qo'shma Shtatlari o'z mustaqilligi uchun kurashda g'alabani qo'lga kiritdi. Garchi bu mustaqillik xalq ommasining ishtiroki orqali amalga oshgan bo'lsa-da, xalqning o'zi bundan bahramand bo'la olmadi. G'alabaning natijalaridan yirik sanoatchilar, yer-mulk egalari foydalandilar. Bundan tashqari, Qo'shma Shtatlarda qulchilik siyosati masalasi hali uzil-kesil hal qilinmagan edi. Bu masala XIX asrda ham barchaning diqqatini tortgan masala bo'lib qolaverdi. Shuning uchun Amerika adabiyotidagi romantizm XIX asrning birinchi yarmidagi ana shu murakkab qarama-qarshiliklarni o'zida aks ettirdi. Agar Amerika Qo'shma Shtatlarining shimoliy qismida sanoat ishlab chiqarishi tez taraqqiy qilgan bo'lsa, janubida hali qulchilik saqlanib qolmoqda edi. Shimol bilan janubning manfaatlari bir-biriga zid bo'lib, bu tez-tez to'qnashuvlarga olib keldi. Katta-katta yer maydonlarini qo'lga kiritish uchun Amerika Qo'shma Shtatlaridagi turg'un xalq – Amerika hindulari bilan to'xtovsiz urush davom etdi. Natijada, hindu qabilalari shafqatsizlik bilan qirib tashlandi. Ana shu mavzu juda ko'p Amerika yozuvchilari, jumladan, Fenimor Kuper ijodida, o'z aksini topdi. AQSHdagi real hayot manzarasi burjua inqilobi e'lon qilgan ozodlik, tenglik hamda baxtga intilish tushunchalari bilan zid kelib qoldi. Natijada, Amerika romantizm adabiyoti real hayotdan chetga chiqib, mavhum ideallarni aks ettirdi. Bu adabiyot burjua tuzumi sistemasiga zid kelib, hindularning pok, sog'lom, odil turmush tarzini kuyladi yoki romantik xayol og'ushiga cho'mib, ideal bo'lgan yuksak, aql kuchiga tayangan tuzumni orzu qildi⁴.

Amerika adabiyotida romantizm rivojlanishining uchta bosqichini kuzatish mumkin. Birinchi bosqich – ilk Amerika romantizmi (1820-1830 yillar). Ilk Amerika romantizmi ko'zga ko'ringan yozuvchilari V.Irving, Fenimor Kuper, U.K.Bryant, D.P.Kennedi va boshqalar ijodi bilan o'zining dastlabki bosqichlarini bosib o'tdi. Ular o'z ijodlarida XIX asrning boshlaridagi Amerika jamiyati hayotining xarakterli xususiyatlarini ifodalab berdilar. Asarlari orqali Amerika adabiyoti birinchi marta xalqaro e'tirofga sazovor bo'ldi.

¹ Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha–o'zbekcha izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1983. – B. 284. – B. 378.

² Shukurov N., Hotamov N., Xolmatov Sh., Maxmudov M. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1879.

³ Azizov Q., Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi (XVIII-XX asrlar): Ped. In-t filol. fak. uchun darslik // Maxsus red. Salomov. G'. – Toshkent: O'qituvchi, 1987. – B. 336. – B. 435.

⁴ Azizov Q., Qayumov O. Chet el adabiyoti tarixi (XVIII-XX asrlar): Ped. In-t filol. fak. uchun darslik // Maxsus red. Salomov. G'. – Toshkent: O'qituvchi, 1987. – B. 336. – B. 435.

Amerika va Yevropa romantizmining o'zaro ta'sir jarayoni mavjud, albatta. Milliy badiiy an'analarning uzviyligi va o'ziga xosliklari xususida izlanishlar olib borilmoqda, asosiy mavzular va muammolar bayon qilingan (mustaqillik uchun kurash, qit'aning rivojlanishi, hindularning hayoti). Bu davrning yetakchi yozuvchilarining dunyoqarashi istiqbol uchun kurashning qahramonlik davrlari va yosh respublika uchun ochilgan ulkan istiqbollar bilan bog'liq optimistik ohanglarida aks etganligi ilmiy asoslab berilgan.

Amerika ma'rifatparvarlik mafkurasi bilan uzluksizlik mavjud. V.Irving ham, F.Kuper ham mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etib, uning rivojlanish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatishga intilishlari muhim. Shu bilan birga, ilk romantizmida Amerika jamiyatining barcha sohalarida kapitalizmning kuchayishining salbiy oqibatlariga reaksiya bo'lgan tanqidiy tendensiya (oqim) lar pishib yetila boshladi. Ular burjua hayot tarziga muqobil izlaydilar va uni Amerika G'arbining romantik idealizatsiyalangan hayotidan, Mustaqillik urushi qahramonlaridan, erkin dengiz elementidan, mamlakatning patriarxal o'tmishidan va boshqalardan topadilar .

Romantizm nazariyasining bosh qomusi – shaxs o'z qobiliyatini amalga oshirish, o'zligini ifodalash, o'z kuchiga ishonchidir. Bu oqimning bosh xislati – idealga moslab hayotni qayta yaratishdir. Amerika romantizmida amerikalik yozuvchilar yangi shakllar yartgan va adabiyot yordamida kun kechirish uchun ko'p yo'llarni ixtiro etgan. Ular tufayli Amerika adabiyoti Qo'shma Shtatlar hamda xorijda o'qila boshladi va qabul etildi. Amerika hayotidagi adolatsizliklarni hindu qabilalarining vahshiylarcha qirib tashlanayotganini qoralaydi. Bu romanlarning qahramonlari vatanparvarlik, ozodlik ideallarini o'zlarida mujassamlashtirgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Нуриева Н. М. Ориентализм в творчестве Вашингтона Ирвинга. *Al-Farabi Kazakh National University. Eurasian Journal of Philology: Science and Education.* № 3 (167). 2017. – Б. 1-7.
- [2]. Vanspenkeren K.Tarjimon: Prof. Hamidulla Karomatov. *Amerika adabiyotining asoslari.* – Toshkent.:1994.-B37.
- [3]. Begmatov E., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mirzayev T. (raxbar), Tuxliyev M., Umarov E., Xudoyberganova D., Xojiyev A. *O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi - R harfi.* – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat milliy nashriyoti, 2006-2008. – B. 239. – B. 321.
- [4]. Hotamov N., Sarimsoqov B. *Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati.* – Toshkent: O'qituvchi. 1983. – B. 87. – B. 378.
- [5]. Normatova Sh. *Jahon adabiyoti. O'quv qo'llanma. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.* – Toshkent: 2008. – B. 36. – B. 50.
- [6]. Hotamov N., Sarimsoqov B. *Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati.* – Toshkent: O'qituvchi, 1983. – B. 282-283. – B 378.
- [7]. Belinskiy V.G. *Poeziyaning xil va turlarga bo'linishi.* 1841. – B. 120. *Manba: Oybek. Mukammal asarlar to'plami 19 tomlik.* Toshkent:"Fan", 1981. 17 tom. – B. 308.
- [8]. Boboyev T. *Adabiyotshunoslikka asoslari.* – T.: " Uzbekiston", 2001. – B. 523. – B. 560.
- [9]. Hotamov N., Sarimsoqov B. *Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati.* – Toshkent: O'qituvchi, 1983. – B. 284. – B. 378.

- [10]. Shukurov N., Hotamov N., Xolmatov Sh., Maxmudov M. *Adabiyotshunoslikka kirish*. – Toshkent: O'qituvchi, 1879.
- [11]. Azizov Q., Qayumov O. *Chet el adabiyoti tarixi (XVIII-XX asrlar): Ped. In-t filol. fak. uchun darslik // Maxsus red. Salomov. G'.* – Toshkent: O'qituvchi, 1987. – B. 336. – B. 435.
- [12]. Rasulova Soxiba. B. Ирвинг ижодида “Ал-Хамро” романидаги арабча сўзларининг асосий турлари ва таржимашунослик муаммолари. 2022. Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947 Advanced Sciences Index Factor. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=oB_qyaMAAAAJ&citation_for_view=oB_qyaMAAAAJ:_kc_bZDykSQC
- [13]. G. H. Bobonazarova *Tilshunoslikda paradigma va uning kelib chiqishi* - Scientific progress, 2021 https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=N06yu0YAAAAJ&citation_for_view=N06yu0YAAAAJ:u5HHmVD_uO8C